



MUHAMMAD IBN SALOM POYKANDIY

Abdurahmon Ismoilov

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoroning Poykand shahridan bo'lgan ajdodimiz, muhaddis, Imom Buxoriy ustozlari Muhammad Ibn Salom Poykandiy haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad, Poykandiy, Ibn Salom, Buxoriy, muhaddis, hadis, tarjih, ta'dil.

Movarounnahrning yetuk allomasi, Imom Buxoriydek zotning ustozlaridan biri Muhammad Ibn Salom Ibn Farog' as-Salmiy 777-mil. (160-h) sana Sufyon Savriy vafot etgan kechada Buxoro o'lkasining Poykand shahrida tavallud topgan.

Ahli sunna val Jamoaning zabardast ulamosi bo'lgan bu zot ilm yo'lida ko'p safar qiluvchi va turli ilmlarda kitoblar yozgan.

Imom Zahabiy (1274-1348) Muhammad Ibn Ismoilni kuchli, o'tkir ilm egasi va hadis ulamosi deb ta'riflagan.

Yahyo ibn Yahyo: Xurosonda ikkita xazina bor biri Muhammad ibn Salom Poykandiy ikkinchisi Ishoq ibn Rohovayh degan.

Bir kuni Muhammad Ibn Salom dars olish jarayonida u zotning qalami sinib qoldi shu zahoti alloma darsni yozolmay qolishidan xavfsirab, bir qalamga bir dinor (o'sha davrda bu pulga bir qo'y berardi) beraman dedi. Shu onda har tomondan qalamlar kela boshladi. U zot o'zlarini ilm olishda va ta'lim berish, talabalarni qo'llab quvvatlash, kitoblar yozishda juda ko'p mablag' sarflaganini aytgan.

Muhammad ibn Salom ustuzlari to'rt yuzta ekanligini aytgan. Misol uchun: Abdulloh Ibn Muborak, Sufyon Ibn Uayyana, Ismoil Ibn Ja'far va hokazo.



Manbaalarda mazkur mohir hadis roviysining darsida hatto jinlar ham qatnashganligi aytilgan.

Imom Buxoriy Muhammad ibn Salomning darslariga muntazam qatnashgan. Hattoki Muhammad ibn Salom o'z kitobini Imom Buxoriyga berib turardi.

U zotning shogirdlari ham juda ko'p bo'lgan. Ulardan mashxurlari Imom Buxoriy, Ubaydulloh Ibn Uyayna, Tufayl Ibn Zayd Nasafiylar bo'lgan Imom Buxoriy Muhammad Ibn Salomni 225-hijriy yil Safar oyining 7-kunida (839-mil.) yilda vafot etganini aytgan.

Aslida yetuk shaxslarni tarixini o'rganishimiz shunchaki ularni tanib, bilib qo'yish uchungina emas ularni ilmlari, hayot yo'llari va tajribalaridan dars olib, hayotimizga tatbiq qilib, samarasini dunyo va oxiratda ko'rishimiz uchundir.

Alloma Muhammad Ibn Salom shaxsiyatidan ham ilm olishga ishtiyoq va ilm yo'lida xarajatdan qochmaslik, ustozlarni hurmat qilish, olgan ilmini shogirdlarga yoyish kabi ko'plab ibratlar olishimiz mumkin.

Muhammad Ibn Salom Poykandiy va Imom Al-Buxoriy. Imom Buxoriyning Buxorolik ustozlaridan biri Muhammad Ibn salom Poykandiy va Imom Buxoriy o'rtasidagi munosabatlarni yoritib beruvchi bir necha misollar:

Muhammad Ibn Ismoil Al Buxoriy dedi: Bir kuni menga ustozim Muhammad Ibn Salom Poykandiy: Meni kitoblarimni bir ko'zdan kechiring agar unda biron xato topsangiz belgilab qo'ying dedi. Shundan keyin Muhammad Ibn Salom hadislarni yozganida Imom Buxoriy tekshirib, ma'qullagan hadislar oldiga "ma'qulladi", ma'qullamagan zaif hadislar oldiga esa "ma'qullamadi" deb yozib qo'yar edi. Poykandiyning sheriklari undan "ma'qullagan kim?" deb so'rashganida, Poykandiy: U o'xshashi yo'q yigit Muhammad Ibn Ismoil Al Buxoriy deb javob berdi.

Solim Ibn Mujohid aytadi: Muhammad Ibn Salom Poykandiyni huzuriga kirganimda u menga biroz oldinroq kelganingda edi yetmush ming hadis yodlagan yigit (Imom Buxoriy)ni ko'rar eding dedi. Men uni ortidan qidirib, topdim va unga sen yetmush ming hadis yodlaganmisan dedim. U yigit: Ha balki bundanda ko'proq. Agar biror sahoba yoki



tobeindan xabar aytsam, uni tug'ilgani, vafoti va yashagan makonlarigacha bilaman. Agar biror sahoba yoki tobeindan hadis rivoyat qilsam unga Qur'on va hadisdan dalilini ham bilaman dedi.

Bir kuni Muhammad Ibn Salom Poykandiy huzuriga Imom Al Buxoriy kirib, biroz muddatdan keyin chiqib ketdi. Shunda Poykandiy: Har gal shu yigit (Imom Buxoriy) huzurimga kirganida o'zimni yo'qotib, chiqib ketgunicha xato qib qo'yishimdan xavfsirab turaman dedi.

“Sahihul Buxoriy”dagi roviy Muhammad Ibn Salom

Imom Buxoriyning shayxlaridan (ustozlaridan) biri Muhammad Ibn Salom Poykandiydir. Imom Buxoriy Sahihul Buxoriyning turli boblarida Muhammad Ibn Salom Poykandiydan 36 ta hadis rivoyat qilgan.

Quyida Poykandiyni roviylik jihatidan tanib olsak:

Roviy haqida qisqa ma'lumot:

Ism: Muhammad Ibn Salom Al-Faroj

Rutbasi: Siqa, Sabt

Shuhrati: Muhammad Ibn Salom Poykandiy

Kunyasi: Abu Abdulloh

Nasabi: Poykandiy, Buxoriy, As-Salmiy

Tug'ilgan: 160 h. 777 mil.

Vafoti: 225 h. 839 mil.

Yashagan: Poykand, Buxoro

Shayxlari (Ustozlari):



Sufyon Ibn Uyayna Al-Haloliy

Rutbasi: Siqa, Hofiz, Hujjat

Abdulloh Ibn Muborak Al-Hanzoliy 118-181 h. 736-797 mil.

Rutbasi: Siqa, Sabt, faqih, olim

Anas Ibn Iyoz Al-Laysiy

Rutbasi: Siqa

Ibrohim Ibn Abdulloh Al-Maxzumi

Rutbasi: Siqa

Ismoil Ibn Ulya Al-Asadiy

Rutbasi: Siqa, Hujjat, Imom

Ibrohim Ibn Muhammad Al-Fazoriy

Rutbasi: Siqa, Hujjat, Imom

Ismoil Ibn Ja'far Al-Ansoriy

Rutbasi: Siqa

Qosim Ibn Malik Al-Mazaniy vafoti: 190 h. 806 mil.

Rutbasi: Siqa

Jarir Ibn Abdulhamid Az-Zobbiy

Rutbasi: Siqa

Xolid Ibn Abdulloh At-Tohhan

Rutbasi: Siqa



Sarij Ibn No'mon Al-Javhariy

Salom Ibn Salim Al-Hanafiy

Rutbasi: Siqa, Mutqin

Sahl Ibn Yusuf Al-Anmatiy

Rutbasi: Siqa

Abdurrohman Ibn Abdula'la Al-Quroshiy vafoti: 189 h. 805 mil.

Rutbasi: Siqa

Abdurrohman Ibn Muhammad Al-Mahoribiy vafoti: 195 h. 811 mil.

Rutbasi: Siqa

Abdurrohman Ibn Mahdiy Al-Anbariy 135-198 h. 752-814 mil.

Rutbasi: Siqa, Sabt, Hofiz, Rijollar va hadislarni tanuvchi

Abdulloh Ibn Idris Al-Avdiy 115-192 h. 733-808 mil.

Rutbasi: Siqa, Hujjat

Shogirdlari:

Muhammad Ibn Ismoil Al Buxoriy 194-256 h. 810-870 mil.

Rutbasi: Hifzi kuchli, Hadis fiqhida dunyo imomi

Fazl Ibn Al-Habbob Al-Jamhiy 207-304 h. 822-916 mil.

Rutbasi: Siqa, Sabt

Fazl Ibn Abu Tolib Al-Hoshimiy 170-236 h. 786-850 mil.

Rutbasi: Siqa



Muhammad Ibn Yazid Ar-Rofe vafoti: 248 h. 862 mil.

Rutbasi: Zaiful hadis

Ahmad Ibn Nasr Al-Askariy

Rutbasi: Siqa

Ahmad Ibn Muhammad Al-Bahiliy

Rutbasi: Vazo

Ibrohim Ibn Muhammad Poykandiy

Ismoil Ibn Hamdavayh Poykandiy

Abbos Ibn Faraj Al-Royashiy vafoti: 257 h. 871 mil.

Rutbasi: Siqa

Abdulloh Ibn Vosil Al-Buxoriy 201-272 h. 816-885 mil.

Rutbasi: Siqa

Muhammad Ibn Sahl Al-Katib vafoti: 325 h. 937 mil.

Rutbasi: Siqa

Muhammad Ibn Abd Samarqandiy vafoti: 292 h. 905 mil.

Muhammad Ibn Yahyo Ibn Mandah 220-301 h. 835-914 mil.

Rutbasi: Siqa

Muhammad Ibn Yazid Al-Asadiy

Rutbasi: Matrukul hadis

Ahmad Ibn Muhammad Al-Buxoriy



Yahyo Ibn Ismoil Al-Hamadoni

Ajyaf Ibn Adam

Yusuf Ibn Al-Hadiy Al-Maqdisiy 225-296 h. 840-909 mil.

Rutbasi: Hasanul hadis

Muhaddislarning u haqidagi fiklari (Jarh va ta'dil):

Ibn Hajar Asqaloni: Siqa, Sabt

Zahabiy: Hofiz, Movarounnahrning muhaddisi

Abu Hotam Ar-Roziy: Siqa, Soduq

Abu Nasr Ibn Mokulo: Siqa

Hasan Ibn Muhammad Al-Jiyaniy: Imom Buxoriyning shayxi (ustozi)

Sahl Ibn Mutavakkil: Katta muhaddislardan, ko'p hadis biluvchi, hadisda zokir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shamsiddin Zahabiy. Siyar a'lam nubala. Liviya: Baytul Afkar ad-Davliyya. 2009.
2. Abdulloh Ibn Ady Al-Jurjoni. Man rova anhum Al-Buxoriy fil-Sohih. Bayrut: Darul Bashair al-Islamiy. 1994.
3. Abul Valid Al-Baji. Ta'dil va Tajrih. Liviya: Darul Kutubul Ilmiyya. 2012.